XALQ DEPUTATLARI VOBKENT TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

200300, Vobkent tumani, Imom Buxoriy ko'chasi 55-uy, tel: (65) 33-22-131

2022 - yil 26 - fevral VI-58-38-2-33-K/22 Vobkent tuman hokimligi

Vobkent tumanidagi mavjud xiyobon va istirohat bog'larini nomlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Geografik ob'ektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021 yil 25 dekabrdagi 08-07413-sonli "Geografik ob'ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida ekspert xulosasi"ni inobatga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2021 yil 25 dekabrdagi 08-07413-sonli "Geografik ob'ektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to'g'risida"gi takliflarining qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida ekspert xulosasi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vobkent tumanidagi xiyobon va istirohat bog'larini nomlash ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi obodonlashtirish boshqarmasi (U.Tolibov), tuman madaniyat bo'limi (I.Baxronov), tuman statistika bo'limi (T.Tursunov), Kadastrlar palatasi tuman filiali (B.Mirzayev)ga tegishli davlat ro'yxatidan o'tkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib, tegishli hisobotlarga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritish topshirilsin.

4. Mazkur qaror “Vobkent hayoti” tuman gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (Yu.Nasullayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **F.Umarov**

Халқ депутатлари Вобкент туман
Кенгашининг
2022 йил 26 февралдаги
VI-58-38-2-33-K/22-сон қарорига
1-илова

Vobkent tumanidagi xiyobon va istirohat bog‘larini nomlash

RO‘YXATI

T/R	Geografik ob’ektning turi	Joylashgan manzili	Geografik ob’ektlarning nomi
1.	Xiyobon	“Charmgaron” MFY I.Buxoriy ko‘chasi	Xotira
2.	Istirohat bog‘i	“Charmgaron” MFY Bobur ko‘chasi	Tinchlik
3.	Istirohat bog‘i	“Vobkent” MFY I.Buxoriy ko‘chasi	Bolajon dunyosi